

MODALLIK PRAGMATIKASINING PUBLITSISTIK NUTQDA IFODALANISHI

Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi.

Tel.: +998919759495

E-mail: gulasalxayrulloeva@gmail.com; korporativ e-mail: g.f.xayrulloeva@buxdu.uz;

ORCID: 0000-0001-9891-967X

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929943>

Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining publitsistik nutqda pragmatik voqelanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Publitsistik matnda modal birliklarning muallif pozitsiyasini ifodalash, axborotning ishonchlik darajasini belgilash, o‘quvchini muayyan fikrga ishontrish, zarurat, ehtimollik va baholash ma’nolarini yuzaga chiqarishdagi vazifalari yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida “Buxoronoma” hamda “Buxoro universiteti” gazetalarining 2026-yildagi sonlarida chop etilgan publitsistik matnlardan foydalanildi. Gazeta materiallaridan olingan iqtiboslar asosida epistemik va deontik modallikning pragmatik funksiyalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: modallik, pragmatika, publitsistik nutq, epistemik modallik, deontik modallik, modal birlik, kommunikativ intensiya, baholash, zarurat, ehtimollik.

Аннотация. В статье анализируются особенности прагматической реализации категории модальности в публицистической речи. Рассматриваются функции модальных единиц в выражении авторской позиции, степени достоверности информации, убеждения адресата, а также значений необходимости, вероятности и оценки. Материалом исследования послужили публицистические тексты из газет «Вухоронума» и «Вухоро университети», опубликованные в 2026 году. На основе цитат из газетных материалов раскрываются прагматические функции эпистемической и деонтической модальности.

Ключевые слова: модальность, прагматика, публицистическая речь, эпистемическая модальность, деонтическая модальность, модальная единица, коммуникативная интенция, оценка, необходимость, вероятность.

Abstract. The article examines the pragmatic realization of modality in journalistic discourse. It focuses on the functions of modal units in expressing the author’s position, marking the degree of certainty, persuading the addressee, and conveying necessity, probability and evaluation. The research material consists of journalistic texts published in the 2026 issues of the newspapers “Buxoronoma” and “Buxoro universiteti”. Quotations from the newspapers are used to reveal the pragmatic functions of epistemic and deontic modality.

Keywords: modality, pragmatics, journalistic discourse, epistemic modality, deontic modality, modal unit, communicative intention, evaluation, necessity, probability.

Kirish. Publitsistik nutq jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarni yoritish, ularni baholash va jamoatchilik fikriga ta’sir ko’rsatishga yo’naltirilgan funksional nutq ko’rinishidir. Unda faktik axborot bilan bir qatorda muallifning voqelikka, xabar mazmuniga va adresatga munosabati ham ifodalanadi. Shu jihatdan modallik publitsistik matnning muhim semantik-pragmatik qatlamlaridan biri sanaladi. Modallik orqali so’zlovchi yoki muallif fikrning haqqoniylik darajasi, ehtimolligi, zarurati, majburiyligi, maqsadga muvofiqligi hamda bahosini namoyon etadi [5. 2024:B.112].

Modallikning pragmatik xususiyati til birligining lug’aviy yoki grammatik ma’nosidangina emas, balki uning muayyan kommunikativ vaziyatda nima maqsadda qo’llanganidan kelib chiqadi. Masalan, mumkin shakli semantik jihatdan imkoniyatni bildirishi mumkin, biroq publitsistik matnda u muallifning ehtiyotkor prognozi, fikrni yumshatish yoki qarorning kategorikligini pasaytirish vositasi sifatida namoyon bo’ladi. Kerak, lozim, zarur kabi birliklar esa deontik ma’noni yuzaga chiqarish bilan birga, adresatni muayyan harakat, munosabat yoki ijtimoiy pozitsiyaga yo’naltiradi. Shuning uchun publitsistik diskursda modallikni muallif intensiyasi, kontekst va kommunikativ ta’sir bilan bog’liq holda tahlil qilish muhimdir [6. 2026:B.381].

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Buxoronoma” va “Buxoro universiteti” gazetalaridagi publitsistik matnlar asosida modal birliklarning pragmatik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tahlilda tavsifiy,

kontekstual va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Misollar gazeta matnidan aynan iqtibos shaklida olinib, ulardagi modal vositaning semantik turi hamda kommunikativ vazifasi izohlandi.

Publitsistik nutqda epistemik modallikning pragmatik xususiyatlari. Epistemik modallik soʻzlovchining xabar mazmuniga ishonch darajasini, uning ehtimoliy yoki aniq deb baholanishini ifodalaydi. Publitsistik matnda epistemik modal birliklar muallifga bir tomondan dalil va xulosaning kuchini belgilash, ikkinchi tomondan esa oʻquvchini maʼlum nuqtayi nazarga ishonitirish imkonini beradi. “Buxoronoma” gazetasining “Tanlov oldida: inson yoki algoritm?” maqolasida sunʼiy intellektning til taraqqiyotiga taʼsiri muhokama qilinar ekan, imkoniyat va ehtimollik maʼnolari faol qoʻllangan.

“Sunʼiy intellekt — imkoniyat ham, sinov hamdir. U oʻzbek tilining rivojiga katta hissa qoʻshishi mumkin, ammo bu faqat insonning ongli yondashuvi bilan amalga oshadi.” [7. 2026:B.2]. Mazkur iqtibosda mumkin birligi epistemik imkoniyatni ifodalab, muallifning qatʼiy hukm emas, shartli va ehtiyotkor prognoz berayotganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, imkoniyat ham, sinov hamdir konstruksiyasi aksiologik baholashni yuzaga chiqarib, hodisaning ikki tomonlama tabiatini oʻquvchi ongida muvozanatli tarzda shakllantiradi.

Epistemik modal maʼno publitsistik matnda faqat mumkin, ehtimol, balki kabi maxsus birliklar bilangina emas, balki qatʼiy ishonchni bildiruvchi modal soʻzlar orqali ham yuzaga chiqadi. Bunday vositalar muallif xulosasini kuchaytirib, adresatni bayon etilgan fikrning ishonchligiga ishonitirishga xizmat qiladi. “Buxoro universiteti” gazetasida oʻzbek alifbosini takomillashtirish masalasiga bagʻishlangan maqola xulosasida shunday deyiladi:

“Agar mazkur islohot ilmiy asosda, puxta tayyorgarlik va bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirilsa, u oʻzbek tilining XXI asrdagi barqaror rivojlanishi va raqamli transformatsiyasini taʼminlovchi muhim omillardan biriga aylanishi shubhasiz.” [4. 2026:B.7]. Bu yerda shubhasiz modal soʻzi yuqori darajadagi epistemik ishonchni ifodalaydi. Pragmatik jihatdan u maqola davomida ilgari surilgan dalillarni yakuniy xulosa sifatida mustahkamlaydi va oʻquvchida muallif pozitsiyasining asoslanganligi haqidagi tasavvurni kuchaytiradi.

Epistemik modallikning pragmatik tabiati muallifning axborotga masofasini boshqarishida ham koʻrinadi. Qatʼiy ishonch birliklari oʻquvchiga taʼsir kuchini oshirsa, ehtimollik vositalari fikrni ehtiyotkor bayon qilishga xizmat qiladi. Shu bois publitsistik matnda modal birlikni tanlash axborotning oʻzi bilan birga, uni qanday qabul qildirish strategiyasini ham belgilaydi.

Deontik modallik va publitsistik daʼvat pragmatikasi. Deontik modallik zarurat, majburiyat, ruxsat, talab va ijtimoiy meʼyor maʼnolarini ifodalaydi. Publitsistik diskursda ayniqsa kerak, lozim va zarur birliklari faol boʻlib, ular muallifning muayyan holatni nafaqat tasvirlashi, balki unga nisbatan normativ pozitsiya bildirishiga imkon beradi. “Buxoronoma” gazetasidagi “Kitob targʻibotida yangicha yondashuv kerak” sarlavhasining oʻziyoq deontik modal maʼnoni yuzaga chiqaradi [1. 2026:B.4]. Bu yerda kerak birligi sarlavhada qoʻllanib, mavjud holatni oʻzgartirish zaruratini markaziy tezisga aylantiradi. Natijada sarlavha axborot berish bilan cheklanmay, oʻquvchini yangicha yondashuvni maʼqullashga undaydi.

Xuddi shunday, “Tanlov oldida: inson yoki algoritm?” maqolasida sunʼiy intellektidan foydalanishning meʼyoriy yoʻnalishi quyidagi iqtibos orqali beriladi:

“Tilni rivojlantirish uchun sunʼiy intellektidan toʻgʻri foydalanish zarur.” [7. 2026:B.2]. Zarur predikativi kuchli deontik modal maʼnoni ifodalaydi. Mazkur birlik orqali muallif sunʼiy intellektidan foydalanishni shunchaki imkoniyat sifatida emas, til taraqqiyoti uchun masʼuliyatli va maqsadga muvofiq yoʻl sifatida talqin qiladi.

“Buxoro universiteti” gazetasida alifbo va raqamlashtirish masalasini yoritgan maqolada lozim hamda kerak birliklarining publitsistik-pragmatik imkoniyatlari yaqqol koʻrinadi:

“Tilning grafik tizimi ham zamon talablariga javob berishi lozim.” [4. 2026:B.6]. Lozim modal predikativi bu gapda zamon talabi bilan bogʻlangan obyektiv zaruratni yuzaga chiqaradi. Muallif alifbo masalasini ixtiyoriy tanlov emas, davr taraqqiyoti taqozo etayotgan vazifa sifatida oʻquvchiga taqdim etadi.

“Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini takomillashtirish boʻyicha taklif etilayotgan oʻzgarishlar nafaqat imlo masalasi, balki raqamlashtirish siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi kerak.” [4. 2026:B.6]. Kerak birligi bu oʻrinda muallifning hodisani qanday talqin qilish lozimligi haqidagi konseptual pozitsiyasini ifodalaydi. Pragmatik taʼsir shundan iboratki, adresatga alifbo islohotini tor imloviy masala emas, keng texnologik jarayonning bir qismi sifatida qabul qilish yoʻnalishi taklif etiladi.

Deontik modallik ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik burchini ifodalashda ham samarali vosita hisoblanadi. “Buxoro universiteti” gazetasidagi “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining tayanchi” maqolasida muallif yoshlar nomidan quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Biz — yoshlar, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan ulkan imkoniyatlarni chuqur anglab, ulardan samarali foydalanishimiz, ilm-fan, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar va halol mehnat orqali Yangi O‘zbekistonning yanada qudratli va taraqqiy etgan davlatga aylanishiga munosib hissa qo‘shishimiz lozim.” [2. 2026:B.4]. Iqtibosdagi lozim shakli zarurat bilan birga ijtimoiy burch, mas’uliyat va da’vat ma’nolarini mujassamlashtiradi. Biz — yoshlar birikmasi esa muallif va adresat o‘rtasidagi kommunikativ masofani qisqartirib, individual fikrni umumiy guruh pozitsiyasiga aylantiradi.

Baholash, ritorik savol va modal ta’sir. Publitsistik nutqda modallik ko‘pincha baholash va ritorik savol bilan birikib keladi. Bunday hollarda muallif o‘quvchiga tayyor xulosa berish bilan cheklanmay, uni muammoni ichki dialog asosida idrok etishga undaydi. “Tanlov oldida: inson yoki algoritmi?” maqolasining o‘z sarlavhasi muqobil tanlov modelini yaratib, o‘quvchini inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabat haqida mushohada qilishga yo‘naltiradi [7. 2026:B.2]. Maqola matnidagi “Ammo savol tug‘iladi: sun’iy intellekt o‘zbek tilining rivojiga xizmat qiladimi yoki aksincha, uning tabiiy taraqqiyotiga xavf tug‘diradimi?” mazmunidagi ritorik savol ham muallifning problematik pozitsiyasini kuchaytiradi. Bunday so‘roq shakli javob talab qiluvchi oddiy sintaktik konstruktsiya emas; u o‘quvchini muallif bilan birgalikda muammoni baholashga jalb etuvchi pragmatik vositadir.

Baholovchi modallikda ijobiy yoki salbiy aksiologik birliklar xabar mazmuniga muallifning subyektiv munosabatini qo‘shadi. Masalan, imkoniyat, sinov, muhim, zarur, to‘g‘ri, ulkan kabi leksemalar publitsistik matnda faktning o‘zidan tashqari uning ijtimoiy qiymatini ham belgilaydi. Shu tariqa modal-baholovchi vositalar o‘quvchida kerakli emotsional va intellektual reaksiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik nutqda epistemik va deontik modallik ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi. Muallif avval mumkin, shubhasiz kabi birliklar orqali hodisaning ehtimollik yoki ishonchlilik darajasini belgilaydi, keyin esa kerak, lozim, zarur vositalari orqali undan kelib chiqadigan normativ xulosani ilgari suradi. Bu ketma-ketlik publitsistik argumentatsiyaning muhim pragmatik mexanizmi bo‘lib, fakt → baho → da’vat modelini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Publitsistik nutqda modallik semantik kategoriya bo‘lish bilan birga, muallif va adresat o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni boshqaruvchi pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. “Buxoronoma” va “Buxoro universiteti” gazetaridan olingan misollar epistemik modallikning ehtimollik, imkoniyat va qat’iy ishonchni, deontik modallikning esa zarurat, ijtimoiy burch, tavsiya hamda normativ talabni ifodalashini ko‘rsatdi.

Mumkin shakli publitsistik matnda hukmning kategorikligini yumshatib, ehtiyotkor prognoz yaratadi; shubhasiz muallif ishonchini maksimal darajada kuchaytiradi; kerak, lozim va zarur esa adresatni muayyan qarash yoki harakatga yo‘naltiradi. Ritorik savol va baholovchi leksika bu modal ma’nolar bilan birikib, publitsistik ta’sirni yanada kuchaytiradi. Demak, publitsistik diskursdagi modallikni tahlil qilishda nafaqat grammatik shakl va semantik tur, balki muallif intensiyasi, adresat, kontekst va kommunikativ strategiya ham hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva O. Kitob targ‘ibotida yangicha yondashuv kerak // Buxoronoma. – Buxoro, 2026-yil 8-may. – №35. – B.4.
2. Jo‘rayev F. Yoshlar — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining tayanchi // Buxoro universiteti. – Buxoro, 2026-yil 21-iyul. – B.4.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Toirova G. O‘zbek alifbosi islohoti // Buxoro universiteti. – Buxoro, 2026-yil 21-iyul. – B.6–7.
5. Xayrulloeva G.F. Modallikni ifodalashning semantik asoslari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2024. – 10-son. – B.112.
6. Xayrulloeva G.F. Communicative and pragmatic features of modality in Uzbek language // International Journal of Literature and Language Studies. – 2026. – Vol. 5, Issue 6. – P.381.
7. Xayrulloeva G.F. Tanlov oldida: inson yoki algoritmi? // Buxoronoma. – Buxoro, 2026-yil 8-may. – №35. – B.2.